

SEDUM TURKUMIGA KIRUVCHI O'SIMLIKLARNING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI VA JAHON HAMDA MAHALLIY TAJRIBANI O'RGANISH

Xudayberganova L.B.¹

Toshtemirova Ch.T.²

¹Osiyo xalqaro universiteti, Urganch shahri, Xorazm viloyati, O'zbekiston Respublikasi e-mail: lobarxudayberganova16@gmail.com, tel: 91-858-61-51

²Toshkent farmatsevtika instituti, Oybek ko'chasi, 45 uy., Toshkent, 100015 (O'zbekiston)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20666014>

Mavzuning dolzarbligi: *Sedum L.* (Crassulaceae oilasi) turkumi dunyo bo'yicha 400–500 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Ushbu o'simliklar Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika va Kavkaz hududlarida keng tarqalgan bo'lib, xalq tabobatida qadimdan qo'llanib kelinadi. *Sedum* turlarining yer ustki qismi biologik faol moddalar – flavonoidlar, fenol birikmalari, alkaloidlar, organik kislotalar, polisaxaridlar va mikroelementlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning maqsadi: *Sedum* turkumiga mansub o'simliklarning kimyoviy tarkibi, farmakologik xususiyatlari, tibbiyotdagi qo'llanilishi hamda jahon va O'zbekiston tajribasini tahlil qilishdan iborat.

Material va metodlar: Xitoy xalq tabobatida *Sedum aizoon L.* ("Jingtian Sanqi") qon ketishlarni to'xtatish, qon aylanishini yaxshilash, uyqusizlik, yurak urishining buzilishi va yallig'lanish kasalliklarini davolashda qo'llanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu tur tarkibidan 150 dan ortiq biologik faol birikmalar aniqlangan. Braziliya tajribasi ko'ra *Sedum dendroideum* barg shirasi oshqozon-ichak tizimi kasalliklari hamda yallig'lanish jarayonlarida ishlatiladi. Tajriba hayvonlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda yallig'lanishga qarshi faolligi 66 % gacha ekanligi aniqlangan Turkiya tajribasi *Sedum spurium* ekstraktlarining antioksidant va sitotoksik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotlarda flavonoidlar va fenol birikmalarining yuqori miqdori aniqlanib, ularning kuchli antioksidant faollikka ega ekanligi ko'rsatilgan. O'zbekistonda *Sedum* turkumiga mansub ayrim turlar botanika bog'larida va introduksiya uchastkalarida o'stirilmoqda. So'nggi yillarda farmakognoziya yo'nalishidagi tadqiqotlarda *Sedum spurium (M.Bieb.)* turining kimyoviy tarkibi, fenol birikmalari, flavonoidlar, oshlovchi moddalar hamda makro va mikroelementlari o'rganilmoqda. Tadqiqotlar natijasida o'simlik tarkibida antioksidant faollikka ega biologik faol moddalar mavjudligi aniqlangan. Mahalliy olimlar tomonidan ushbu tur asosida yangi fitopreparatlar yaratish istiqbollari o'rganilmoqda.

Natijalar va ularning tahlili: Fitokimyoviy tarkibi. *Sedum* turlarida kversetin, kemferol hosilalari, fenol kislotalari, oshlovchi moddalar, shilimshiq moddalar va mikroelementlar uchraydi. Ushbu birikmalar antioksidant va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. Antioksidant faollik erkin radikallarni neytrallash orqali hujayralarni himoya qilishga yordam beradi.

1-jadval

Sedum turlarining asosiy farmakologik xususiyatlari

Farmakologik ta'siri	Qo'llanilishi	Tadqiq qilingan turlar
Yallig'lanishga qarshi	Dermatit, yara, kuyish	<i>S. dendroideum</i> , <i>S. spurium</i>
Antioksidant	Erkin radikallarga qarshi	<i>S. spurium</i> , <i>S. aizoon</i>
Gemostatik	Qon ketishini to'xtatish	<i>S. aizoon</i>
Yaralarni bitiruvchi	Trofik yara, kuyishlar	<i>S. spurium</i> , <i>S. dendroideum</i>

Antimikrob	Bakterial va zamburug'li infeksiyalar	Sedum spp.
Diuretik	Siydik ajralishini kuchaytirish	Sedum spp.
Analgetik	Og'riq qoldiruvchi	S. dendroideum
Sitotoksik	O'smaga qarshi istiqbolli vosita	S. spurium

Manbalar shuni ko'rsatadiki, Sedum turlari xalq tabobatida yallig'lanishga qarshi, qon to'xtatuvchi, diuretik, zamburug'larga qarshi va yara bitiruvchi vosita sifatida keng qo'llanadi.

2-jadval

Turli mamlakatlarda Sedum turlarining qo'llanilishi

Mamlakat	Tur	Asosiy qo'llanilishi
Xitoy	S. aizoon	Gemostatik, sedativ, yallig'lanishga qarshi
Braziliya	S. dendroideum	Oshqozon kasalliklari, yallig'lanish
Turkiya	S. spurium	Antioksidant, sitotoksik
Gruziya	S. spurium	Kuyishlar va yaralar
Meksika	S. dendroideum	Analgetik va yallig'lanishga qarshi

3-jadval

Sedum spurium tarkibidagi asosiy biologik faol moddalar

Moddalar guruhi	Farmakologik ahamiyati
Flavonoidlar	Antioksidant, kapillyarlarni mustahkamlovchi
Fenol birikmalari	Antiradikal faollik
Oshlovchi moddalar	Yallig'lanishga qarshi, antiseptik
Organik kislotalar	Modda almashinuvini yaxshilaydi
Polisaxaridlar	Immunomodulyator
Mikroelementlar	Metabolik jarayonlarda ishtirok etadi

Xulosa

Sedum turkumiga mansub o'simliklar xalq va ilmiy tibbiyotda muhim o'rin tutadi. Jahon tajribasida Sedum turlari yara bitiruvchi, yallig'lanishga qarshi, antioksidant, gemostatik va analgetik vosita sifatida qo'llanib kelmoqda. O'zbekiston sharoitida ayniqsa ***Sedum spurium (M.Bieb.)*** turining kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Olingan natijalar ushbu o'simlik asosida yangi fitopreparatlar yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Flora of China. Beijing: Science Press; St. Louis: Missouri Botanical Garden Press, 2001.
2. World Health Organization. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants. Geneva,

1999–2023.

3. Trease and Evans Pharmacognosy. London: Elsevier, 2009.
4. Tyler's Herbs of Choice. New York: Haworth Herbal Press, 2000.
5. Journal of Ethnopharmacology. Sedum species bo'yicha etnofarmakologik tadqiqotlar, turli sonlar.
6. Phytochemistry. Sedum turlarining flavonoidlari va fenol birikmalari bo'yicha maqolalar.
7. Fitoterapia. Sedum sarmentosum va boshqa turlarning farmakologik faolligi bo'yicha tadqiqotlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Farmakopeyasi. Toshkent, 2021–2024.
9. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika Instituti. O'zbekiston florasini va dorivor o'simliklari bo'yicha ilmiy nashrlar.
10. Flora of Uzbekistan. Toshkent: Fan nashriyoti, turli jildlar.
11. Medicinal Plants of Central Asia: Uzbekistan and Kyrgyzstan. Springer nashri.
12. Chinese Journal of Integrative Medicine. Sedum sarmentosumning gepatoprotektor va yallig'lanishga qarshi xususiyatlariga oid maqolalar.